

O'RTA TA'LIM MAKTABLARI ONA TILI DARSLARIDA UNDOV, TAQLID VA MODAL SO'ZLARNI O'RGATISH.

Xalilova Zebo O'lmas qizi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada morfologiya bo'limiga kiruvchi undov, taqlid va modal so'zlarni umumta'lim maktablarida o'qitish bo'yicha bir nechta metodik tavsiyalar va alohida olingan so'z turkumlarining nutqdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Morfologiya, Alohida olingan so'zlar, taqlid so'z, modal so'zlar, "Hissiyotlar zanjiri", "Kim topqir?", "Nutq vaziyati" .

Kirish.

Maktab darslarida alohida olingan so'zlarni o'qitish, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda va til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat yangi so'zlarni yodlashni, balki ularning ma'nosini tushunishni, kontekstda qo'llashni va nutqni boyitishni ham o'z ichiga oladi. Maktab darslarida esa so'z o'rgatish jarayoni nafaqat ot, fe'l yoki sifat kabi asosiy so'z turkumlarini, balki undov, taqlid va modal so'zlar singari nutqimizga boylik va ta'sirchanlik bag'ishlovchi unsurlarni ham qamrab olishi lozim. Bu turdagи so'zlar tilning emotсional, ifodaviy va muloqot xususiyatlarini oshirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning nafaqat lug'at boyligini, balki ularning nutqiy mahoratini, fikr ifodalash qobiliyatini ham tubdan yaxshilaydi. O'rta ta'lrim maktablarining ona tili darslarida "Alohida so'z turkumlari" ya'ni undov, taqlid va modal so'zlarning lingvistik xususiyatlarini, ularning nutqda tutgan o'rnini va ma'no ko'lamenti atroflicha o'rganamiz. Bu so'zlar nafaqat o'zbek tilining

boyligini namoyish etadi, balki til o‘rganuvchilarga chuqurroq va hissiyotli muloqot qilish imkonini ham baxsh etadi.¹

Maktab dastur va darsliklarida taqlidlar, undovlar va modal so‘zlar (o‘zida goh mustaqil, goh yordamchi so‘zlarga xos xususiyatlarni namoyon etgani uchun) oraliq so‘z turkumlari sifatida berilgan.²

Shunday qilib, “Morfologiya” bo‘limini o‘rganishda mustaqil, yordamchi, oraliq so‘z turkumlarining ichki ma’no guruhlari ustida ishslash, mustaqil, yordamchi, oraliq so‘zlar ishtirok etgan gaplar, ular asosida matnlar tuzish, mustaqil, yordamchi, oraliq so‘z turkumlariga oid materiallarni semantika va stilistika bilan uzviy aloqadorlikda O‘rganish ustida maxsus ish olib borish, har xil ta’limiy o‘yin, topshiriqlardan foydalanish kabilar mazkur bo‘lim ta’limi orqali

O‘quvchilarning tafakkur ko‘lамини kengaytiradi, so‘z boyligini oshiradi.³

Endi esa umumta’lim maktablarida undov, taqlid va modal so‘zlarni o‘qitish va ularni mustahkamlash borasida bir nechta metodlarni ko‘rib chiqamiz.

1-topshiriq. “Kim topqir “ o‘yini. Berilgan so‘zlarni jadval asosida undov, taqlid va modal so‘zlarga ajratib yozing.

O‘qituvchi dostaka uch ustun chizadi. Yoki jadvalli tarqatmani o‘quvchilarga beradi. O‘qituvchi so‘zlarni o‘qiydi, o‘quvchilar uni mos ustunga yozishi talab etiladi.

Namuna uchun so‘zlar: Voy, Eh-he, G‘uv-g‘uv, Miyov-miyov, Balki, Shekilli, Uf-uf, Churq-churq, Albatta, Shubhasiz, Ey, Ha-ha, To‘g‘risi, Darhaqiqat, Do‘ng‘-do‘ng‘, Sharaq-sharaq, Afu, Kechirasiz, Pish-pish, Chiq-chiq, Attang, essiz, obbo, fikrimcha, oh,

¹ “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” B.To‘xliyev., M.Shamsiyeva., T.Ziyodova. Toshkent -- 2006.

² “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” B.To‘xliyev., M.Shamsiyeva., T.Ziyodova. Toshkent -- 2006.

³ YULDASHEVA DILOROM NIGMATOVNA“O‘ZBEK TILINI O‘QITISH METODIKASI” Buxoro-2021.

gumbur- gumbur, nahotki, zero, ehtimol, voy, yarq-yurq, xayr, qiy- chuv, hoy, aftidan, o'ylashimcha, taraq-turuq, qah-qah, avvalam bor .

Undov so'zlar	Taqlid so'zlar	Modal so'zlar

Metodning foydali jihatlari: Berilgan so'zlar bilan ishlash orqali ishtirokchilarning so'z boyligi ortadi, undov, taqlid va modal so'zlarning nutqdagi o'rnini anglash to'g'ri va ta'sirchan gapirishga yordam beradi. So'zlarni ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra ajratish orqali grammatik qoidalar amaliy jihatdan o'zlashtiriladi. Berilgan so'zlarni tahlil qilib, ularni tegishli guruhlarga ajratish mantiqiy va analitik fikrlash qobiliyatini oshiradi. Jadval shakli esa ma'lumotlarni tartibli va ko'rgazmali tarzda taqdim etadi, bu esa tushunishni osonlashtiradi. Bu o'yin o'quvchilarga o'zbek tilidagi undov, taqlid va modal so'zlarni o'zlashtirishda amaliy va qiziqarli yordam beradi. Bu o'yin orqali o'quvchilar ushbu uch so'z turkumini nazariy emas, balki amaliy tarzda farqlashni va ularning vazifasini tushunishni o'rganadilar. Berilgan so'z yoki vaziyatga tezda javob berish talabi o'quvchilarda tezkor tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Kim birinchi va to'g'ri javob berishga intilish, o'quvchilarni o'yin jarayoniga to'liq e'tibor qaratishga undaydi. O'yin davomida turli xil undov, taqlid va modal so'zlarning faol qo'llanilishi ularning lug'at boyligini kengaytiradi.

2-topshiriq. "Hissiyotlar zanjiri" (Undov so'zlar uchun).

O‘quvchilarni doira shaklida o‘tqaziladi. Birinchi o‘quvchi biror undov so‘zni aytadi (masalan, **Ofarin!**). Ikkinci o‘quvchi o‘sha undov so‘zdan keyingi mantiqiy gapni tuzadi va yangi bir undov so‘zni aytadi.

Masalan:

1-o‘quvchi: **Ofarin!**

2-o‘quvchi: **Ofarin**, sen bugun darsga yaxshi tayyorlanibsang. **Voy!**

3-o‘quvchi: **Voy**, qanday chiroyli gul! **Eh-he!**

O‘yin zanjir uzilmaguncha davom etadi. Kim undov so‘zni topa olmasa yoki noto‘g‘ri ishlatsa, o‘yindan chiqadi.

Metodning foydali jihatlari: “Hissiyotlar zanjiri” metodi undov so‘zlarni o‘rganish uchun ajoyib usul. U o‘quvchilarning nutqini rivojlantiradi, lug‘at boyligini oshiradi, mantiqiy fikrlash va ijodkorlikni kuchaytiradi. Shuningdek, hissiy intellektni rivojlantirib, tezkorlik va diqqatni oshiradi. O‘yin jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirib, darslarga qiziqishni oshiradi va grammatik bilimlarni mustahkamlaydi.

3-topshiriq. “Nutq vaziyati” Tashkil etilishi: O‘quvchilarga turli nutq vaziyatlari yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Masalan: “Siz ekskursiyada g‘ayrioddiy hayvonni ko‘rdingiz”, “Yomg‘ir yog‘ayapti”, “Imtihon natijalarini kutayapsiz”.

O‘yin jarayoni: Har bir o‘quvchi o‘z kartochkasidagi vaziyatga mos ravishda qisqa gap yoki jumlalar tuzishi kerak, bunda undov, taqlid va modal so‘zlardan foydalanish shart. Misol: “Ekskursiyada g‘ayrioddiy hayvonni ko‘rdingiz” – Voy-bo‘y, qanday g‘alati hayvon! Chapak-chapak qilib qo‘llarini urdi, albatta, hamma hayratda qoldi. Bu o‘yin o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini va so‘zlarni nutqda qo‘llash malakasini oshiradi.

Metodning foydali jihatlari: “Nutq vaziyati” o‘yini o‘quvchilarning tilni amaliyotda, real vaziyatlarga yaqin sharoitlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Bu o‘yin faqat bitta so‘z turkumiga emas, balki undov, taqlid va modal so‘zlarni birgalikda, kontekstga mos ravishda ishlatish malakasini

shakllantiradi. O'quvchilar berilgan vaziyatga mos ravishda og'zaki nutq tuzishlari kerak bo'ladi, bu esa ularning kommunikativ ko'nikmalarini va o'z fikrlarini aniq ifodalash qobiliyatini oshiradi. Turli vaziyatlarni tasavvur qilish va ularga mos hissiy rang berish orqali o'quvchilarning empatiya qobiliyati rivojlanadi. Ular boshqa odamlarning histuyg'ularini va vaziyatlarga munosabatini til orqali ifodalashni o'rganadilar. Har bir vaziyatga o'ziga xos va noyob jumlalar tuzish imkoniyati o'quvchilarda ijodkorlikni va til vositalaridan erkin foydalanish qobiliyatini rag'batlantiradi.

Xulosa: An'anaviy darslardan farqli o'laroq, bu interaktiv o'yin o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi va o'rganishni yanada yoqimli qiladi. Metodlarning uyg'unligi natijasida o'quvchilar nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki tilning emotsional va ifodali jihatlarini ham chuqr tushunadi. Bu so'zlarni shunchaki yodlab olish o'rniga, ular bu so'zlar orqali o'z fikr va tuyg'ularini yanada aniqroq ifodalashni o'rganadi. Natijada, o'quvchilarning nutqi yanada rangin, jozibali va ma'noli bo'ladi. "Hissiyotlar zanjiri", "Kim topqir?" va "Nutq vaziyati" kabi o'yinlar undov, taqlid va modal so'zlarni o'rgatishda an'anaviy usullardan samaraliroq. Bu metodlar o'quvchilarning nutqini, lug'at boyligini, fikrlash tezligi va ijodkorligini rivojlantiradi. Ayniqsa, "Nutq vaziyati" o'yini so'zlarni kontekstda qo'llash va kommunikativ ko'nikmalarni kuchaytiradi. O'yinlar darslarga qiziqishni oshirib, motivatsiyani kuchaytiradi va grammatik bilimlarni amaliy o'zlashtirishga yordam beradi. Bu yondashuv tilni faol va jonli muloqot vositasi sifatida o'rganish imkonini beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1-Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qollanma B. Mengliyev , R.Sayfullayeva, G.Boqiyevalar Toshkent 2009.

2- O'zbek tilini o'qitish metodikasi

B.To'xliyev, M.Shamsiyeva,T.Ziyodovalar

3. 8- sinf darslik Toshkent 2019

Ra'no Sayfullayeva, Baxfiyor Mengliyev, Hamid Ne'matovlar.

4. Ona tili o'qish metodikasi. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Karimjonova M.
5. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. G'ulomov A. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. G'ulomov A. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Universitet, 2001.